OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHOMURZAYEVA NASIBA XOSHIMOVNA

TALABALARDA TURIZM BILAN SHUG‘ULLANISHIGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 378.015.3:338.48:796

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Shomurzayeva Nasiba Xoshimovna
Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish pedagogik imkoniyatlari……..…..3

Шомурзаева Насиба Хошимовна
Педагогические возможности развития интереса студентов к туризму ……..…..21

Shomurzayeva Nasiba Khoshimovna
Pedagogical opportunities for developing students’ interest in tourism……..……39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….……43

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHOMURZAYEVA NASIBA XOSHIMOVNA

TALABALARDA TURIZM BILAN SHUG‘ULLANISHIGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7317 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yarmatov Raximboy Baxramovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Soliyeva Zuxra Taxirovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Yarashev Komiljon Dexqanovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "20" 11 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20; faks: (99871) 202-01-21, e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (50 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «10» 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil «10» 11 dagi 23 - raqamli reyestr bayonnomasi).

U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.d. (DSc), dotsent.

Ya.U.Ismadiyorov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
p.f.d.(DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro turistik safarlar soni taxminan 1,4 mlrd.ga yetib, 2019-yil darajasining 99 foizini tashkil etdi, O‘zbekistonga esa 8,2 mln. xorijiy fuqaro tashrif buyurdi. Jahonning ko‘pgina taraqqiy etgan mamlakatlarida oliy ta'lim jarayonida turizmdan talabalarning jismoniy faolligini, sog‘lom turmush tarzini va kasbiy tayyorgarligini shakllantirish vositasi sifatida foydalanilmoqda, UNWTO ta'biri bo‘yicha turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy, ekologik va siyosiy hodisa hisoblanadi. Ijtimoiy turizm – insonparvarlik maqsadlarini aks ettiradi, bu maqsadlar esa insonlarni sog‘lomlashtirishga, ularning madaniy va o‘quv-ta'lim manfaatlarini qondirishga qaratilgan. Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish asosida pedagogik texnologiyalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishga qiziqishni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jarayonlarini takomillashtirish hamda turizm bilan shug‘ullanish konsepsiyasini yuksaltirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Dunyo ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarning turizm bilan shug‘ullanishini rivojlantirish, oliy ta'lim muhiti samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish, turizm turlarining yangi istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, turizmni takomillashtirish modellari va texnologiyalari samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mavjud muammolarning yechimini amalga oshirishda interfaol pedagogik uslublarni qo‘llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayonida talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishga oid muammolarni bartaraf etishda pedagogik jarayonda zamonaviy ta'lim modellaridan foydalana olish ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish bilan birga global turizm muammolarining oldini olish va ularni bartaraf etish uchun bu jarayon muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishni rivojlantiruvchi ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini belgilash hamda turizmni jadal rivojlantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda turizm bo‘yicha kadrlar tayyorlash ta'lim muassasalari ochilishi, turizm bilan shug‘ullanishni rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, ichki va tashqi turizm faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. “Respublikada turizm bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yo‘nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ‘ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlash”[1] muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu esa

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 09-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishga qiziqishni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini ochib berishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz pedagog olimlaridan T.Abdullayeva, R.Abdumalikov, A.Allayorov, S.Axatov, S.Axmedova, N.Shamuratova, M.Usmonova, U.Xasanov, E.Daurenov, Sh.Kadirov, F.Kerimov, F.Qutlimurotov, L.Sanaeva, R.Salomov, A.Shopulatov, N.To‘xtaboyev, N.Tuxliev, I.Xasanov, T.Xayitov, T.Xoldorov, N.Xudayberdiyeva, E.Xurramov, E.Tursunqulov, U.Egamov, R.G‘ulomov, B.Qo‘chqarov, R.Qosimovalar tomonidan turizmni boshqarish, turizm sohasida talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, talabalarni kasbiy turizmga tayyorlash va sayohatga yo‘naltirishning samarali yo‘llari tadqiq etilgan.

Turizm munosabatlarining o‘ziga xos shakl va usullarini o‘rganish, bolalar va yoshlar turizmini takomillashtirish Y.Buylin, V.Varlamov, L.Vyatkin, Y.Sidorchuk, Y.Konstantinov, A.Magomedov, J.Xolodov, I.Barchukov, E.Glebova, V.Slastenin, A.Fedyakinlar tomonidan tadqiq etilgan.

Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish, shaxsda turizm sifatlarini rivojlantirish bosqichlarini A.Tomino, M.Peris, N.Wisen, S.Roberts, B.Ritchie, N.Peris, G.Papanikos, S.McCool, S.Gammon, D.Funk, K.Filo, B.Braun, Anderson, L.Gourdonlar tomonidan tadqiq etilgan. Ko‘rsatilgan tadqiqotlarda talabalarda turizm bilan shug‘ullanishga qiziqishni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini

innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va amaliyotga tadbiq etish muammolari” (2022–2026) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning ta’limdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning zamonaviy didaktik texnologiyalarga asoslangan ilmiy modelini ishlab chiqish;

jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarida turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish texnologiyasini o‘rgatish amaliyotini joriy etish;

talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini ilmiy jihatdan asoslash, mazkur jarayonning samaradorligini oshirish va ilmiy asoslangan tavsiyalar orqali amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Jizzax davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universitetlarining 368 nafar respondent-talabasi jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (adabiyotlarni o‘rganish, hujjatlarni tahlil etish, analiz, sintez, qiyoslash, modellashtirish) va empirik (anketa, test, so‘rovnoma, matematik-statistik) usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari sport turizmini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda auditoriyadan tashqari faoliyatlarda aktiv va passiv turizm komponentlarini kognitiv qiziqishlariga mos ravishda metodik jihatdan uyg‘unlashtirish orqali aniqlashtirilgan;

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishni rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli metodologik, tashkiliy-texnologik va natijaviy komponentlarni tayyorlov, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va motivlashtiruvchi bosqichlarda algoritmik aks ettirish orqali takomillashtirilgan;

turizmga qiziqishni rivojlantirish jarayoni vitagen ta’lim integratsiyasiga asoslangan holda, talabalarning ongli va ixtiyoriy faoliyatdagi ehtiyoj hamda qiziqishlarini amaliy tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek o‘qitishning induktiv va deduktiv metodlarini kompleks qo‘llash orqali aniqlashtirilgan;

talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish samaradorligi jismoniy mashg‘ulotlarning yoshga mos adaptiv ketma-ketligi, yuklama parametrlarining optimal davomiyligi va individuallashtirilgan tashkil etish mexanizmlarini ta’minlovchi raqamli-metodik ta’minot, evidence-based tavsiyalar hamda amaliy implementatsiya yechimlarini ishlab chiqish orqali oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning turizm bilan shug‘ullanish motivatsiyasini rivojlantirish texnologiyasi, tuzilmasi va turlari aniqlangan;

turizm bilan shug‘ullanishiga talabalar qiziqishini rivojlantirish samaradorligini baholash diagnostik apparati takomillashtirilgan;

“Turizm va uni o‘qitish metodikasi” fanining o‘quv-uslubiy va didaktik ta’minoti takomillashtirilgan;

talabalarda turizm bilan shug‘ullanish motivatsiyasini rivojlantirish jarayonlari jadalligini ta’minlashga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning metodologik bazasi ta’minlanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, eksperimental tanlov guruhining reprezentativligi, to‘plangan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi, keltirilgan tahlillar, pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish” tushunchasi mohiyatining ochib berilganligi, rivojlantirish jarayoni tuzilmasi, kompetentligi, komponentlari, tamoyillari va yondashuvlarining belgilanganligi, bo‘lajak o‘qituvchilarda turizm bilan shug‘ullanish motivatsiyasining rivojlanganligini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarining takomillashtirilganligi, oliy pedagogik ta’lim tizimida turizm bilan shug‘ullanish motivatsiyasini rivojlantirish integrativ mazmunining yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy pedagogik ta’lim jarayonida talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish modelining ishlab chiqilganligi, uni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlarining aniqlashtirilganligi, bo‘lajak o‘qituvchilarda turizm bilan shug‘ullanish motivatsiyasini rivojlantirishning algoritmik bosqichlari hamda asosiy tarkibiy qismlarining takomillashtirilganligi, shuningdek mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot natijalari quyidagi shakllarda joriy qilindi:

talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini sport turizmini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda auditoriyadan tashqari faoliyatlarda aktiv va passiv turizm komponentlarini kognitiv qiziqishlariga mos ravishda metodik jihatdan uyg‘unlashtirish orqali kengaytirishga oid takliflar “Turizm va uni o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug‘i asosida berilgan 232-637 raqamli nashr

ruxsatnomasi). Natijada, talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishni rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini metodologik, tashkiliy-texnologik va natijaviy komponentlarni tayyorlov, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va motivlashtiruvchi bosqichlarda algoritmik aks ettirish orqali takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan 2022–2025-yillarda bajarilgan PZ-2017927124 raqamli **“**Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish**”** mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 17-fevraldagi 02/01-01-103-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishni rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlashtirilgan;

turizmga qiziqishni rivojlantirish jarayonini vitagen ta’lim integratsiyasiga asoslangan holda, talabalarning ongli va ixtiyoriy faoliyatdagi ehtiyoj hamda qiziqishlarini amaliy tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek o‘qitishning induktiv va deduktiv metodlarini kompleks qo‘llash orqali aniqlashtirilgan tavsiyalardan “Bolalar uchun shiyponchali o‘yin kompleksi” nomli sanoat namunasi patentini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining №SAP-02423 raqamli guvohnomasi). Natijada, talabalarda turizmga qiziqishni rivojlantirish jarayoni aniqlashtirilgan;

talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish samaradorligi jismoniy mashg‘ulotlarning yoshga mos adaptiv ketma-ketligi, yuklama parametrlarining optimal davomiyligi va individuallashtirilgan tashkil etish mexanizmlarini ta’minlovchi raqamli-metodik ta’minot, evidence-based tavsiyalar hamda amaliy implementatsiya yechimlarini ishlab chiqish orqali oshirishga qaratilgan tavsiyalardan “Turizm va uni o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 17-fevraldagi 02/01-01-103-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda innovatsion vositalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida amalga oshirilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan hamda texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi bayon etilgan, ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarning turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, omillari, shuningdek talabalarda turizm bilan shug‘ullanishga qiziqishni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil etilgan.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini to‘g‘ri tashkil etish, bilim olish va har tomonlama barkamol, sog‘lom shaxsni shakllantirish, har qanday qatlam vakillari uchun sifatli va qulay bo‘lgan ta’limni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimini yuksak darajaga olib chiqish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini va ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo‘lida jahonning yetakchi tashkilotlari bilan hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma’naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart hamda turizm sohasida ko‘p rejali va ta’sirchan hamkorlik hayotga tatbiq etilmoqda. Ta’lim, madaniyat, fan va turizmni rivojlantirish kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, turizm tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib ta’lim va turli sohalar uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimini yaratish ko‘zda tutiladi.

Sohadagi islohotlar natijasida turizm tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimi isloh qilindi, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va talabalarni oliy ta’lim bilan qamrab olish choralari kuchaytirildi, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi. Turizm sohasida hamda sayohat, piyoda yurish masalalari borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish masalasi maxsus o‘rganilmaganligi mazkur muammo yuzasidan alohida izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

R.X. Allayorov ilmiy tadqiqot ishida turizm tashkilotlari ekosayohatlarining obyektini takomillashtirish masalalari hamda talabalarni ilmiy-metodik faoliyatga tizimli yo‘naltirish ishlarini tashkil etish, ularni muvofiqlashtirish hamda innovatsion mashg‘ulot ishlanmalarini ta’lim-tarbiya jarayonlariga keng joriy etishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligini e’tirof etgan.

N.T. To‘xtaboyevning olib borgan tadqiqot ishlarida jismoniy tarbiya mahoratini pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabat, o‘zaro ta’lim oluvchi yoki ma’lum bir vosita orqali ta’lim oluvchi orasidagi jarayon bo‘lib, u shaxs kasbiy mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi, degan ta’rifni ko‘ramiz.

E.A. Tursunqulov ilmiy izlanishlari davomida jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish mexanizmlarini o‘rganish bilan birga pedagog shaxsining kasbiy faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlari va yondashuvlarni hisobga olgan holda, pedagog kadrlarning salohiyatini shaxsiy, faoliyatli, samarali, muammoli va muhitga doir boshqarish mexanizmlarida ko‘rib chiqish lozim ekanligini aniqlagan.

E.Y. Daurenov o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida o‘quv-tadqiqot faoliyati usullariga o‘rgatishda turistik sayrda jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlarni rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish faoliyati samarali kechadi, degan fikrni ilgari surgan.

Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishni rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalari talabalariga mutaxassislik fanlari darslarida integratsiyalashgan ta’limdan foydalangan holda turizm asosida ta’lim jarayonini tashkil etish, ularning kelgusi faoliyatlarida “Turizm va uni o‘qitish metodikasi” fani asosida mashg‘ulotlarni tashkil etishlarida kasbiy faollikni oshirishning muhim omili deb hisoblash mumkin.

Yuqoridagi olimlar fikrlaridan kelib chiqqan holda tadqiqotchi tomonidan quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: *turizm bilan shug‘ullanishga qiziqish – talabaning turizm faoliyatiga nisbatan barqaror kognitiv yo‘nalganligi, ijobiy emotsional-motivatsion munosabati hamda sayohat, yurish va sport turizmi mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishga ichki ehtiyoji va tayyorligini ifodalovchi shaxsiy sifatdir. U ta’lim jarayonida shakllanib, talabaning mustaqil va muntazam turistik faoliyatida namoyon bo‘ladi.*

Turizm bilan shug‘ullanishga qiziqishning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

– kognitiv: turizm turlari, marshrutlarni rejalashtirish, xavfsizlik qoidalari va turizmning sog‘lomlashtirish ahamiyati haqida bilim olishga intilish hamda bu bilimlarni chuqurlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj;

– emotsional-motivatsion: turizm mashg‘ulotlaridan ijobiy his-tuyg‘u va qoniqish hosil qilish, shaxsiy motiv hamda ichki rag‘batning mavjudligi;

– faoliyatli: marshrut va yurish tadbirlarini tashkil etishda, sayohat va sport turizmi mashg‘ulotlarida mustaqil, faol va muntazam ishtirok etish.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish amaliyoti”** deb nomlangan ikkinchi bobi talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish modelini ishlab chiqishga, shuningdek talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish texnologiyalarini tatbiq etishga bag‘ishlangan.

Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish uchun pedagogik modellashtirishga tayanamiz. Pedagogik modellashtirish tushunchasini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ma’lum bir ijtimoiy-madaniy makon doirasida ta’lim jarayonining tarkibiy va konseptual xususiyati, protsessual hamda individual tomonlarini modellashtirish orqali pedagogik obyektlarni o‘rganishdir. Pedagogik loyiha ustida ishlashning dastlabki bosqichida qiladigan ishimiz – model yaratishdir. Model yaratish – bu pedagogik jarayon, vaziyat yoki tizimni yaratishning umumiy g‘oyasi va maqsadga erishishning asosiy usullarini ishlab chiqishdir. Olib borayotgan ilmiy tadqiqotimiz uchun talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini ishlab chiqish zarur.

Biz loyihalashtirilgan modelning asosiy strategik maqsadini talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish deb belgilab oldik. Ushbu maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

ta’limda yondashuvlarni shaxsiy yo‘nalishdan kelib chiqqan holda tanlash. Shuningdek, yondashuvlarni o‘rganish va to‘g‘ri tanlash faoliyatimizning maqsadini, shu bilan birga biz foydalanadigan vositalar doirasini ko‘rib chiqish jihatlarini cheklash uchun zarurdir. Ushbu vazifani ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik-psixologik texnologiyalarni kiritish orqali hal qilish lozim;

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish ta’lim jarayonidagi faoliyat faolligini oshirish muammosi ularda kelgusidagi kasbiy faoliyatga qiziqishni orttirishga imkon beradigan ta’lim shakllarini yangi pedagogik strategiyalarni tanlash orqali hal etish;

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish bosqichlarini aniqlash va tavsiflash;

talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish mezonlari va darajalarini aniqlash;


talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish samaradorligini ta’minlash;

natijalarni tahlil etish, tizimlashtirish va umumlashtirish.

Modelni tizimli ravishda ishlab chiqish jarayonini yondashuvlarni tanlashdan boshladik. Ilmiy tadqiqot ishimiz uchun yetakchi yondashuv sifatida shaxsga, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan bir qatorda integrativ yondashuvlarni tanladik. Yondashuvlar nafaqat pedagogik nazariyani, balki amaliyotni ham rivojlantirishda maxsus ilmiy kategoriya sifatida asos hisoblanadi (1-rasm).

Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini ishlab chiqish uchun biz talabada turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish vazifasini belgilab oldik.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni tanlash talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Faoliyat yondashuvining bilim va ko‘nikmalarga qarama-qarshi emasligi, aksincha uning tarkibiy qismi sifatida qaralishi ushbu yondashuvning o‘ziga xos xususiyatidir. Integrativ yondashuv talabaning turizm bilan shug‘ullanishga qiziqishi rivojlanishiga ta’sir qiladigan har bir tashqi omilni hisobga oladi, shuningdek bir nechta yondashuvlarni birgalikda qo‘llashga, kasbiy xususiyatlarni ijodiy jarayon sifatida aks etishini hisobga olish imkonini beradi.



1-rasm. Talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish modeli

Model maqsadli, metodologik, tashkiliy-texnologik va natijaviy komponentlarning o‘zaro uzviy aloqadorligi va izchilligi asosida shakllantirilgan. Har bir komponent modelning o‘ziga xos vazifasini bajaradi va keyingi komponent uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Model tuzilmaviy bo‘lib, uning komponentlari va ular orasidagi aloqalarni, funksional bo‘lib esa har bir komponentning ta’lim jarayonida bajaradigan vazifasini ifodalaydi. Shu sababli model nafaqat nazariy sxema, balki turizm yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar bilan amaliy ish olib borish uchun uslubiy ko‘rsatma vazifasini ham bajaradi. Quyida modelning har bir komponenti sxemadagi izchillikka muvofiq bayon etiladi.

Maqsadli komponent modelning strategik yo‘nalishini belgilaydi. Uning maqsadi – talabalarda turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish. Maqsad ijtimoiy buyurtmaga, kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanib, modelning boshqa komponentlari mazmunini yo‘naltiradi.

Metodologik komponent modelning ilmiy-nazariy asosini tashkil etadi. Yondashuvlar sifatida shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va integrativ yondashuvlar tanlandi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olishni, faoliyatli yondashuv bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida o‘zlashtirishni, integrativ yondashuv esa turli yondashuv va ta’lim vositalarini o‘zaro uyg‘un qo‘llashni ta’minlaydi. Shuningdek, vitagen ta’lim g‘oyasiga muvofiq talabaning shaxsiy hayotiy va sayohat tajribasi (vitagen tajriba) ta’lim mazmunini tanlashda tayanch sifatida olinadi. Bu yondashuvlar birgalikda talabani ta’limning passiv tinglovchisidan o‘z faoliyatining faol sub’ektiga aylantiradi, turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishni esa tashqi talab emas, shaxsiy ehtiyoj darajasiga olib chiqadi. Yondashuvlarning tanlanishi tamoyil va vazifalarni belgilashga zamin yaratadi.

Modelning tamoyillari quyidagilardan iborat: individuallashtirish va insonparvarlik – ta’lim mazmunini har bir talabaning imkoniyati va qiziqishini hisobga olgan holda tanlash; jamoaviy va individual tayyorgarlik birligi – guruhda hamkorlikda hamda mustaqil ishlashning uyg‘unligi; onglilik va faollik – talabaning o‘z faoliyati maqsadini anglashi va mustaqil qaror qabul qilishi; fundamentallik va amaliyotga yo‘nalganlik – nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar va sayohatlar bilan bog‘lash. Tamoyillar ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida bir-birini to‘ldirgan holda amal qiladi va modelning keyingi komponentlari uchun mezon vazifasini o‘taydi.

Metodologik komponentning vazifalari: turizmga oid tayanch bilimlarni shakllantirish; qiziqishni ta’lim mazmuni va shaxsiy sayohat tajribasi bilan boyitish; talabalarni marshrut va yurish tadbirlarini tashkil etishga jalb etish; AKTdan samarali foydalanish. Ushbu vazifalar izchil bajarilganda talabada bilim, amaliy tajriba va faoliyatga ichki ehtiyoj uyg‘unlashadi.

Tashkiliy-texnologik komponent modelning amaliy ijrosini ta’minlaydi. Uning mazmuni salohiyatni ro‘yobga chiqarish, marshrut va sayohat loyihalarini vizualizatsiya qilish hamda mustaqil faoliyatni o‘z ichiga oladi. Talaba o‘z imkoniyatlarini aniqlaydi, sayohat marshrutini xarita va raqamli tasvirlar yordamida loyihalaydi hamda uni mustaqil amalga oshiradi. Mazmun talabalarning o‘quv mashg‘ulotlarida olgan nazariy bilimlarini real sayohat tajribasi bilan bog‘laydi, bu esa qiziqishning amaliy faoliyatda mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ta’limni tashkil etish shakllari: ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, yurish va sayohatlar, guruhda ishlash va mustaqil ta’lim. Ma’ruzada turizm bo‘yicha nazariy asoslar beriladi, amaliy mashg‘ulot va yurishlarda bilimlar sinovdan o‘tkaziladi, guruhda ishlash hamkorlikni, mustaqil ta’lim esa shaxsiy mas’uliyatni rivojlantiradi.

Metodlar: interfaol, o‘yinli, marshrutni loyihalash, vaziyatlarni tahlil etish, axborotli va innovatsion metodlar. Interfaol va o‘yinli metodlar talabalarni ta’limning faol ishtirokchisiga aylantiradi, marshrutni loyihalash va vaziyatlarni tahlil etish mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi, axborotli va innovatsion metodlar esa raqamli muhitda ishlash imkonini beradi. Induktiv (xususiy tajribadan umumlashmaga) va deduktiv (umumiy qoidadan amaliy topshiriqqa) metodlar kompleks qo‘llanadi.

Vositalar: “Turizm va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi, elektron ta’lim resurslari, xaritalar, navigatsiya ilovalari va AKT. O‘quv qo‘llanma mashg‘ulotlarning uslubiy asosini tashkil etadi, elektron resurslar, xaritalar va navigatsiya ilovalari esa marshrutni rejalashtirish va yo‘nalishni aniqlashda qo‘llaniladi.

Model tayyorlov, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va motivlashtiruvchi bosqichlarda amalga oshiriladi. Tayyorlov (adaptiv-motivatsion) bosqichda talabalar kasbiy faoliyatga moslashtirilib, turizm bilan shug‘ullanishiga qiziqishi uchun dastlabki motivatsion muhit yaratiladi. Shakllantiruvchi (optimal-tadqiqot) bosqichda nazariy asoslar o‘rganilib, turistik topshiriqlarni mustaqil bajarish, tadqiqotchilik va loyihalash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Rivojlantiruvchi (integratsion-faoliyatli) bosqichda talabalar marshrut va yurish tadbirlarini mustaqil rejalashtirib, amalda tashkil etadi. Motivlashtiruvchi bosqichda erishilgan natijalar mustahkamlanib, qiziqishning barqarorligi ta’minlanadi. Bosqichlar o‘zaro izchil bog‘langan: oldingi bosqich natijasi keyingi bosqichning boshlang‘ich sharti bo‘ladi, shu tariqa talabaning qiziqishi dastlabki motivatsiyadan mustaqil kasbiy faoliyatga bo‘lgan barqaror ehtiyojgacha rivojlanadi. Har bir bosqichda mazmun, shakl, metod va vositalar talabalarning tayyorgarlik darajasiga moslashtiriladi.

